

O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA GENDER STEREOTIPI

Alimbayeva Guljamol Sadaddinovna,

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat
pedagogika instituti 2-kurs magistranti
E-mail: alimbaevaguljamal@gmail.com*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18409767>

Annotatsiya: Mazkur maqolada gender (jins) stereotipining o'zbek va qoraqalpoq tillarida lingvokulturologik jihatlarining ayrim murojaat birliklar orqali aks etishi tahlil qilinadi. Murojaat shakllarining voqelanishi ijtimoiy-madaniy va etnik omillar ta'sirida maydonga kelib, nutqiy etiketning o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi. Ishda ikki tildagi farqli va o'xshash jihatlar aniqlanib, milliy mentalitet va ijtimoiy-madaniy qadriyatlarining har ikkala jins vakillari muloqot nutqiga ta'siri ochib berildi.

Kalit so'zlar: stereotip, gender xususiyatlar, erkaklar va ayollar nutqi, kommunikatsiya, murojaat.

Аннотация: В данной статье анализируются гендерные характеристики некоторых форм обращения в узбекском и каракалпакском языках с лингвокультурной точки зрения. Выбор форм обращения объясняется социокультурными факторами, гендерными различиями и специфическими аспектами речевого этикета. В процессе исследования выявляются различия и сходства в двух языках, а также раскрывается влияние национального менталитета и социальных ценностей.

Ключевые слова: стереотип, гендерная идентичность, мужская и женская речь, коммуникация, обращение.

Annotation: This article analyzes the gender characteristics of some forms of address in the Uzbek and Karakalpak languages from a linguocultural point of view. The choice of forms of address is explained by sociocultural factors, gender differences, and specific aspects of speech etiquette. The study identifies differences and similarities between the two languages, as well as the influence of national mentality and social values.

Key words: stereotype, gender characteristics, men's speech, women's speech, communication, appeal.

Kirish. Jamiyatda erkak va ayolning o'rni, hayotiy-ijtimoiy vazifasi (rollari), oilada va jamoadagi xulq-atvor me'yorlari, umuman, qadriyatlar tizimi asrlar bo'yi shakllanib boradi. Til esa ushbu ijtimoiy voqelanishlarning bosh ifodachisi sifatida jamiyat vakillarining gender stereotiplarini saqlab va asrab qoluvchi hamda avloddan avlodga yetkazuvchi asosiy mexanizm vazifasini bajaradi.

Turkiylar azaldan bir butunlikka ega bo'lib, umumiy qadriyatlarni yaratgan va taratgan xalqlardir. Shu bois ularning tili, urf-odatlar va madaniyati mushtarak. Keyingi yillarda turkiy xalqlarning, jumladan, o'zbek va qoraqalpoq tillarining turli sohalari bo'yicha qiyosiy rejada olib borilayotgan ishlarning salmog'i ortmoqda. Bu o'z navbatida turkiy xalqlar tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlar va o'ziga xos mental xususiyatlarni yanada chuqurroq o'rganish va targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Asrlar davomida qoliplashib shakllangan bu ikki tilning mushtarak bo'lgan muloqot nutqi bilan birga, o'ziga xos farqlari, ya'ni genderlektlari maydonga kelgan. Ularni to'plash, leksik va semantik o'ziga xosliklarini aniqlash, har ikkala xalq milliy madaniyati, ma'naviyati,

qadriyatlarini va nutqiy jarayondagi xususiyatlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili. Ushbu yo'nalishda kuzatishlar olib borish uchun dastlab genderologiyaning nazariy-metodologik asosini to'g'ri uqish, bu sohaga oid tushunchaviy apparatni shakllantirish, aynan shu sohaga muvofiq keladigan tadqiq va tahlil yo'nalishlarini belgilab olish lozim bo'ladi. Ana shundagina mazkur sohaning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida ajralishi va taraqqiy etishiga zamin hozirlanadi.

Gender tadqiqotlari lingvistikaning mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning 60-70-yillarida G'arb davlatlarida, xususan, AQSH, Buyuk Britaniya va Germaniyada yuzaga kelgan yangi ayollar harakati tufayli jadal rivojlana boshlagan. Natijada til ilmidagi feministik lingvistika bo'yicha qator ilmiy ishlar paydo bo'ldi. Jumladan, AQHlik olim Robin Lakoff 1975-yilda "Language and Women's Place" nomli asarida til va jins masalalarini tadqiq qilgan bo'lsa, germaniyalik olim Luise F. Pusch masalaning 1970-1980-yillarda ko'proq erkaklarga mo'ljallangan uslubda ifodalashiga e'tibor qaratadi. Shuningdek, hindistonlik Kira Hall, avstraliyalik Cate Poynton hamda Karolina Stanczak kabi tilshunoslarning ishlarida ham masalaning mohiyati ochib berishga qaratilgan.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ayollarga xos muloyimlik, itoatkorlik, uy-ro'zg'or bilan bog'liq munosabatlar, erkaklarga esa kuch, mas'uliyat, tashqi faoliyat va rahbarlik kabi rollar til birliklarida barqaror aks etadi. Ushbu stereotiplarning nutq jarayonida qo'llanishini o'rganish, ular qanday mazmun kasb etishini ochib berish lingvistik ahamiyat kasb etish bilan birga, psixologik va sotsiologik jihatdan ham muhimdir.

O'zbek va qoraqalpoq xalqlarida oila, jamiyat, urf-odat va an'analar muhim o'rin tutgani bois ularning muloqot nutqida genderga oid tasavvurlar ko'p qatlamli, madaniy jihatdan boy va o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bugungi ijtimoiy hayotda gender tenglik tamoyillari kuchayib borgani bilan, kundalik nutqda an'anaviy stereotiplar ko'p uchraydi.

Ushbu ishimizni qiyosiy tahlil metodi asosida o'zbek va qoraqalpoq tillarida gender stereotiplarini nutqiy birliklar, muloqot shakllari, maqol va matallar, metaforalar, murojaat shakllarining umumiy til tizimida qanday aks etishini tahlil qilish hamda ularning jamiyatdagi ijtimoiy ongga ta'sirini va muqimlanishini aniqlash hisoblanadi. Har ikki tilda erkak jinsining faolligi, jamiyatdagi o'rni jamoatchilik bilan bog'liq bo'lib nisbatan faol harakatda namoyon bo'ladi. Ayol faoliyati esa uy-ro'zg'or, tarbiya, itoatkorlik, nafislik bilan ko'proq bog'lanadi.

Natijalar va muhokama. Bugungi kunda yoshlar nutqida stereotiplarning nisbatan uyg'unlashishi sezilmoqda, ya'ni "Ayollar ham rahbar bo'la oladi" degan tasavvurning ilgari surilishi. "Bolani ota ham parvarish qiladi" kabi tushunchalar, tasavvurlar muqimlashmoqda. Bu ijobiy o'zgarish bo'lsa-da, an'anaviy muhitda stereotiplar hanz kuchli.

Qoraqalpoq tilida erkakka xos metaforalar kuchliroq deyish mumkin: *batır, er adam, baslıq, ot bası* kabi ifodalar erkakni jamiyatdagi oʻrni sifatлари bilan tasvirlaydi. Ayollarga nisbatan ijtimoiy nazorat kuchli albatta. Oʻzbek va qoraqalpoq mentalitetida *ayolning ibosi, qiz bolaning yurishi-turishi, hayal aralaspagan isler, iybeli* kabi birliklar orqali ayollarning xatti-harakatiga koʻproq baho beriladi.

Oʻzbek tilida erkaklar bir-biriga murojaat qilganda *otaxon, oqsoqol, ogʻayni, usta, akaxon* kabi birliklardan foydalanadi. Bu murojaatlar hurmat va yaqinlikni bildiradi. Baʼzan *boboy* soʻzi mensimaslik yoki hazilomuz ohangda qoʻllanishi ham mumkin. Qoraqalpoq tilida esa yoshi ulugʻlarga nisbatan *otagʻasi, jasulli, jasulken* kabi murojaatlar ishlatiladi. Shuningdek, *qosshım (yaqin doʻst, safdosh)* soʻzi erkaklar nutqiga xos boʻlib, doʻstlik va hurmatni bildiradi. Bundan tashqari, *dos, agʻayin* kabi murojaatlar ham keng tarqalgan [2: 61]. Qiziqarli jihatlardan biri shundaki, qoraqalpoq tilida *qarındas* [3: 135] atamasi erkaklar tomonidan ayollarga murojaatda qoʻllaniladi. Oʻzbek tilida esa qarindosh atamasi umumiy maʼnoda qoʻllanadi.

Oʻzbek tilida ayollar nutqida erkaklar nutqida uchramaydigan murojaat shakllari mavjud. Masalan, *dugona* atamasi faqat ayollar orasida ishlatiladi. Ammo *ovsin* soʻzining qoʻllanishida oʻzbek va qoraqalpoq tillarida farq mavjud: oʻzbek tilida u nafaqat kelinlar oʻrtasida, shuningdek, oʻrta yoshli begona ayollar orasida ham qoʻllanadi. Qoraqalpoq tilida esa *abısın* atamasi toʻgʻridan-toʻgʻri murojaat sifatida emas, balki *“meniń abısınım”* tarzida izoh shaklida ishlatiladi [1: 87]. Oʻzbek tilida ayollar turmush oʻrtoqlariga *dadasi, ism+aka (Bahodir aka)* kabi shakllarda murojaat qiladi. Baʼzan undov shakllari ham qoʻllanadi. Qoraqalpoq tilida ham shunga oʻxshash murojaatlar mavjud. Masalan, baʼzi oilalarda er-xotin bir-birining ismlarini yoki qisqartma shakllarini qoʻllaydi [2: 49]. Qoraqalpoq ayollarida *murzagʻa, ayqız, appaq, jiyen bala* kabi murojaat shakllari mavjud. Shuningdek, kuyovining singillariga *biykesh* deb murojaat qilish hurmat belgisi sanaladi. Oʻzbek tilida esa bu holatda bevosita qaynsingil deyilmaydi, balki ismga erkalash qoʻshimchalari qoʻshilib murojaat qilinadi.

Maʼlumki, ayollarning oʻzaro gaplashadigan mahram gaplari, asosan, ular nutqida qoʻllanadigan leksik va frazeologik birliklarda koʻproq koʻzga tashlanadi. Shunday soʻz va iboralar borki, ular faqat erkaklar yoki ayollar tomonidagina qoʻllanilishi mumkin. Oʻzbek ayollari nutqining ayrim xususiyatlari boʻyicha tadqiqot oʻtkazgan Sh.Iskandarovning fikriga koʻra, xotin-qizlar nutqiga mansub *aylanay, oʻrgulay, girgitton, qoqindiq* singari soʻzlar ijobiy maʼno nozikligini ifodalovchi leksik vositalar hisoblanadi, ular koʻproq keksa ayollar tomonidan nutqiy odatning turli vaziyatlarida qoʻllanadi [3]. Xotin-qizlar nutqining individual xususiyatlarini *voy* undovining qoʻllanilishi asosida ham oydinlashtirish mumkin. *Voy* undovi *sevinish, erkalash, achinish, qoʻrqish, havas, sarosimalanish, koyish, alam* singari qator ichki holatlarning yuzaga chiqishida ishtirok qilar ekan: *Kechqurun koʻcha eshigi taqilladi-yu, kampirning -voy oʻrgilay, voy girgitton, degan tovushi eshitildi.* (A.Qahhor). Shuningdek, ayollar nutqida

bu soʻz takror holda ham koʻp qoʻllanadi: *-Voy-voy-voy, sodda mugʻombir-yey! - Oyim ikki qoʻllab ushlab, koʻzlarimga tikildi..* (Oʻ.Hoshimov).

Shuningdek, oʻzbek tilida shunday iboralar borki, ular faqat erkaklar nutqidagina qoʻllaniladi: *Burnini yerga ishqalamoq baqbaqangdan akang, dabdalasini chiqarmoq, jagʻini ezib qoʻymoq, otimni boshqa qoʻyaman, quling oʻrgilsin* kabi iboralar asosan erkaklar nutqida qoʻllanishi bilan oʻziga xoslik kasb etadi.

Qoraqalpoq tilida ham faqat erkaklar nutqida uchraydigan va ayollar qoʻllaydigan iboralar talaygina. Jumlagan, erkaklar nutqida *nanin shigardim, nan boldim, kempir soyispaqqa turatugin, qansorpa boldim, juzimniñ suwinday* kabi frazeologizmlar uchrasa, ayollar nutqida *boyinda bar, duzim urgir, qirshiniñnan qiyilgir, beti ashilip ketiw, eki qabat, jeñilayaq, kerbazlanip ketiw, süyegi sipse bolıw* kabi frazeologizmlar tez-tez qoʻllanadi.

Murojaat birliklarining gender xususiyatlarini oʻrganish ularning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy jihatlari ham ochib beradi. Gender tafovutlarning muloqot uslubiga taʼsiri murakkab va koʻp qirrali boʻlib, verbal, noverbal va paralingvistik darajalarda ham namoyon boʻladi [5: 27–30]. Erkak va ayollarga murojaat etishdagi farqlar xalqning milliy mentaliteti, qadriyatlarini va ijtimoiy stereotiplarini aks ettiradi. Shu bois, murojaat birliklarining gender xususiyatlarini tadqiq etish lingvokulturologiyada dolzarb masala hisoblanadi.

Xulosa. Maʼlumki, til va nutq faqat madaniyat vositasi boʻlib qolmasdan, balki u mentalitet vakili sifatida ham faoliyat krsatadi, yaʼni til hamda madaniyat uzviy hamkorlikda boʻladi. Til – mentalitetni aks ettiradigan vosita hamdir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, madaniyatning tilga boʻlgan taʼsiri turli xalq madaniyatlarida va tilida muloqot jarayonida oʻziga xos namoyon boʻladi.

Shu bilan birga, har bir xalqning oʻziga tan xarakter-xususiyatlari, udumlari, turmush tarzi va urf-odati, avvalo tilida aks etadi. Tildagi maqol-matal, frazeologizmlar, tasviriy ifoda, tabu va evfemizmlar xalqning tarixi, etnogenezi kabilarning oʻziga xos taraqqiyoti bilan boʻqliq

Oʻzbek va qoraqalpoq tillarida gender stereotiplarining muloqot nutqida aks etishi har ikki xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayotidan kelib chiqqan. Til birliklari orqali avloddan avlodga oʻtib kelayotgan bu stereotiplar jamiyat ongini shakllantiradi, baʼzan esa ayol va erkakning ijtimoiy imkoniyatlarini cheklab qoʻyishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda gender tenglik gʻoyalari kuchayib borayotgani sababli, til tizimida neytral, diskriminativ boʻlmagan, har ikki jinsni teng qadrllovchi nutq shakllarini rivojlantirish muhimdir. Taʼlim, matbuot, ommaviy axborot vositalari, oila va jamoatchilik muloqoti orqali genderni sezgir nutqni keng joriy etish madaniy rivojlanishning muhim bosqichidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dauletmuratova Z. Qaraqalpaq tilinde tuwısqanlıq atamaları. Filol. fan. nomz. dissertatsiya. -Nukus, 2010.
2. Naurızova A. Qaraqalpaq tilindegi etiket sózler. Filol. fan. nomz. dissertatsiya. -Nukus, 2020.
3. Қарақалпақ тилинің түсиндирме сөзлиги. -Нөкис, 1992.
4. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Ф.ф.н. дисс. -Самарқанд, 1998.
5. Komilova N. Gender tafovutlarning muloqot uslubiga ta'siri. Science Time, 2024, №1, 27–30-betlar.
6. Ko'chimova P. Erkak va ayol nutqida murojaat so'zlar semantikasi. International scientific-practical conference "Problems and Perspectives of Modern Technology in Teaching Foreign Languages". - Tashkent, 2022.
7. Tuxliyeva Y. O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning gender xoslanishi.
8. Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research, 2025.

